

# **"O'zbekiston havo yo'llari"dan Mustaqillik bayramiga chegirmalar**

**2019 10 Sentyabr**

O'zbekistonning milliy aviakompaniyasi yurtimiz mustaqilligining 28-yilligini nishonlash munosabati bilan joriy yilning **31-avgustidan 3-sentyabriga qadar** respublikamiz aholisi va xorijlik sayyoohlар uchun barcha ichki yo'nalishdagi qatnovlarga 30 foizdan 50 foizgacha bo'lган bayram chegirmalarini taqdim etadi.

Bayram chegirmalari:

- Individual yo'lovchilar uchun - **30%**;
- Sayyoqlik guruhlari (5 va undan ortiq kishi), litsey va Oliy o'quv yurtlari, kollejlar talabalari, mакtab o'quvchilari,O'zR IIV, TV, DXX, DSQ, DBQ tizimlaridagi maxsus ta'lim muassasalari va boshqa idoralarning tinglovchi va o'quvchilari uchun - **40%**;
- Oila uchun (2 yoki undan ko'p odam, shuningdek, er va xotin; er, xotin va ularning 18 yoshgacha bo'lган farzandlari; 18 yoshgacha bo'lган farzandini kuzatib boradigan ota-onalar) - **50%**;
- Nafaqaxo'rlar va nogironlar uchun - **50%**;
- 1941-1945-yillardagi urush qatnashchilari va ularga tenglashtirilgan, shuningdek, ikkinchi jahon urushi davridagi fidokorona mehnati va harbiy xizmati uchun orden va medallar bilan taqdirlangan shaxslar uchun - **50%**;
- Chernobil AES fojiasi oqibatlarini bartaraf etishda ishtirok etgan fuqarolarimiz uchun - **50%**;

Chegirmali aviabiletlarni "O'zbekiston havo yo'llari" Milliy aviakompaniyasining aviabiletlarni sotish markaziy ofisi va O'zbekiston aeroportlari kassalarida chegirmalarni olish huquqini beruvchi, tegishli hujjatlarni taqdim etgan holda xarid qilish mumkin.